

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

XIToySHUNOSLIK FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida

NOSIROVA NODIRA ALISHEROVNA

**XIToy TILI GRAMMATIKASIDA TO‘LDIRUVCHI VA UNING
TURLARI**

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (xitoy tili bo‘yicha)
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Xitoy tili va adabiyoti kafedrası mudiri,

f.f.n., dotsent , Karimov A.A.

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-bob. Xitoy tili grammatikasida to‘ldiruvchi va uning grammatikadagi o‘rni.....	5
1.1. Xitoy tilida gap bo‘laklari haqida ma’lumot.....	5
1.2. Xitoy tilida to‘ldiruvchi haqida umumiy ma’lumot.....	9
II-bob. Xitoy tili grammatikasida to‘ldiruvchi turlari	24
2.1. Xitoy tilida vositali to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi	24
2.2. Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi	29
2.3.Xitoy tilida qo‘shma va murakkab to‘ldiruvchi hamda to‘ldiruvchining semantik turlari haqida ma’lumot.....	34
XULOSA	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI	48

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo‘lga kiritgach siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda turli o‘zgarishlar yangiliklar ko‘zga tashlana boshlandi. Bugungi kunda davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy hayotidagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning dunyoqarashida ham shunga monand islohotlar olib borish zarurligi ustuvor masalaga aylandi. Bu borada ijtimoiy-gumanitar fanlar, birinchi navbatda tilshunoslik zimmasiga yanada mas‘uliyatli vazifalar yukladi. Zero, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma‘naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi.¹ O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘lida chuqur islohotlar yo‘lidan borib, amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari til jabhalarida ham e‘tiborga molik ishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini bermoqda. Ayniqsa, insoniyatning XXI asr boshlarida kelib globallashuv davriga qadam qo‘yishi, kommunikatsiya va informatsiya aloqalarida tub burilishlar yasalayotganligi tilni o‘rganish, u bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarni olib borishni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Hozirda xitoy tilini o‘rganishga talabning tobora ortib borishi, xitoy tili grammatikasi, leksik qatlami, umuman har bir jihatini yanada chuqurroq tadqiq etishga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jiatlardan kelib chiqib, xitoy tili grammatikasida to‘ldiruvchi turini, uning anglatgan ma‘nolarini o‘rganish mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Shu kunga qadar ko‘pgina xitoylik, shuningdek, rus hamda o‘zbek xitoyshunoslar tomonidan ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ta‘kidlab o‘tkanimizdek, odatda, xitoy tilida to‘ldiruvchi gap bo‘laklari tarkibida tadqiq etilgan. Bular jumlasiga Горелов В.И. “Практическая грамматика китайского языка”, Адъяа Гэрэлмаа tomonidan himoya qilingan “Члены предложения в китайском языке в сравнении с монгольским языком” nomzodlik ishi hamda xitoylik tilshunoslar 刘月华实用现代汉语语法 va boshqa ishlar kuzatiladi.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. –T., 2010. -B.10.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Xitoy tilida to'ldiruvchi

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Xitoy tilida to'ldiruvchi turlari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ishimiz maqsadi xitoy tilida to'ldiruvchi turlarini o'rganish, ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Xitoy tilida gap bo'laklarini va unda to'ldiruvchi o'rnini o'rganish
- Xitoy tilida to'ldiruvchining semantik turlarini tahlil etish
- Xitoy tilida to'ldiruvchining vositali va vositasiz turlarini o'rganish
- Xitoy tilida to'ldiruvchining tuzilish jihatdan turlarini o'rganish

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ushbu mavzuni yoritishda biz, asosan, XXR da chop etilgan xitoy tili darsliklari², rus tilidagi adabiyotlar³ hamda internet saytlardagi manbalardan keng foydalanishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Ishimiz doirasida tavsifiy, tarkibiy-lingvistik metodlardan foydalandik.

Ilmiy ishning yangiligi. Xitoy tilida to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniluvchi so'zlarning semantik jihatlari, sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zbek tili bilan qiyosiy tahlillar asosida atroflicha tahlil etildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. "Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi va uning turlari" deb nomlangan bitiruv malakaviy ishimiz, xitoy tili, xitoy tili grammatikasi bo'yicha o'qitiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, maxsus kurslar uchun ma'ruza matnlari yaratishda amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv-malakaviy ishi "Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi va uning turlari" deb nomlanib, malakaviy ish kirish, ikki bob va xulosadan iborat. Birinchi bob "Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi va uning grammatikadagi o'rne" deb nomlanib, u ikki

²实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004., 现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京:北京大学出版社, 2009., 李临定.-动词的宾语和结构的宾语, 语言教学与研究,1984年第3期.

³Горелов В.И. Практическая грамматика китайского языка.- М.: Внешторгиздат, 1957. — 192 с.

fasldan tashkil topgan. Mazkur bobda xitoy tilida gap bo'laklari va to'ldiruvchining gapdagi o'rni ko'rib chiqildi.

Ikkinchi bob "Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi turlari" deb nomlanib , mazkur bob 3 fasldan iborat bo'lib, quyida birinchi faslda vositali to'ldiruvchi va uning ifodalanishi, ikkinchi faslda vositasiz to'ldiruvchi va uning ifodalanishi , uchinchi faslda qo'shma va murakkab to'ldiruvchi hamda to'ldiruvchining semantik turlari ko'rib chiqildi.

Xulosada tadqiqot mavzusi bo'yicha erishilgan natijalar bayoni keltirilgan. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishimiz foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi va uning grammatikadagi o'rni

1.1. Xitoy tilida gap bo'laklari haqida ma'lumot

Bir gap odatda faqatgina bir so'zdan iborat bo'lmaydi. Ushbu so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabat turli xilbo'ladi. Ba'zi so'zlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri munosabat bo'lib, ba'zi so'zlar esa boshqa so'z bilan birikib so'z birikmasi hosil qilgandan so'nggina boshqa so'zlar bilan munosabatga kirisha oladi. Masalan,

小组讨论整整进行了一天。⁴

Xiǎozǔ tāolùn zhěngzhěng jìnxíng le yītiān.

Tarjimasi : To'garak muhokamasi bir kun davom etdi.

Ushbu gapda 小组 va 进行 so'zlari to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirishmagan, 整整 va 讨论 so'zlari esa grammatik jihatidan bir-biriga bog'lanmagan, 小组 va 讨论 so'zlari o'zaro bog'langan bo'lib, tobe munosabatli fe'lli birikma hisoblanadi, 整整 va 进行了一天 so'zlari o'zaro bog'langan bo'lib, ular ham tobe munosabatli fe'lli birikma hisoblanadi, 小组讨论 va 整整进行了一天 bu ikki birikma o'zaro bog'langan bo'lib, ega-kesimli gapni hosil qilgan. Gapdagi har bir so'z yoki so'z birikmasining vazifasi har xil. Masalan yuqoridagi gapda 小组讨论 gap tasvirlayotgan obyekt, unda 小组 so'zi 讨论 so'zini tasvirlab kelmoqda. 整整进行了一天 birikmasi 小组讨论 birikmasini tasvirlab kelmoqda, bunda 整整 so'zi 进行了一天 birikmasini aniqlab kelmoqda, 一天 so'zi 进行 harakati vaqtiga qo'shimcha bildirmoqda. Gapni tashkil etgan so'z yoki so'z birikmalarining o'rni,

⁴实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-20.

ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqasi, vazifasi har xil jihatidan gapni bir nechta gap bo‘laklariga ajratiladi. Yuqoridagi gapni birinchi ikki qismga ajratsak bo‘ladi: 小组讨论 va 整整进行了一天 ega qismi va kesim qismi, undan so‘ng yanada chuqurroq tahlil etsak, ularni besh bo‘lakka ajratamiz: 小组, 讨论, 整整, 进行了, 一天. Gapni alohida bo‘laklarga ajratib chiqilgandagi qismlari, gap bo‘laklari deb nomlanadi. Xitoy tilida gap bo‘laklari 句子成分 Juzi chengfen deb ataladi. Gap bo‘laklari o‘rni, vazifasiga ko‘ra oltiga bo‘linadi, ular quyidagilar: ⁵



Ega bo‘lagi gapning obyektini tasvirlab keladi, kesim bo‘lagi esa ega bo‘lagini tasvirlab keladi. Istalgan ikki qo‘shma bo‘lakni ega va kesim bo‘laklariga ajratish mumkin.

Kesim bo‘lagida asosiy vazifani bajaruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi bu kesim bo‘lagi markazi hisoblanadi, u kesim deb nomlanadi. Fe‘l kesimli gapning

⁵实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-20.

kesimi fe'l bilan ifodalangan bo'ladi, 谓语动词-wei yu dong ci deb nomlanadi. Sifat kesimli gaplarning kesimi sifat bilan ifodalangan bo'lib, 谓语形容词-wei yu xing rong ci deb nomlanadi. Ot kesimli gaplarning kesimi ot so'z turkumiga oid so'z yoki so'z birikmasi bilan, ega-kesim birikmali kesimli gaplarning kesimi ega-kesim birikmasi bilan ifodalangan bo'ladi.

Fe'l-kesimli gaplarning kesim bo'lagida harakat yo'nalgan obyekt, to'ldiruvchi hisoblanadi, odatda ot bilan ifodalanadi. Masalan, 我写字。-Wǒ xiě zì. —Men iyeroglif yozaman. Ushbu gapda 字 *iyeroglif* so'zi 写 *yo'zaman* so'zining to'ldiruvchisi hisoblanadi.

Fe'l-kesim va sifat kesimdan so'ng kelgan qo'shimcha bo'lak to'liqlovchi hisoblanib, ko'pincha fe'l shaklli so'zlar bilan ifodalanadi. Sonli birikma ham to'liqlovchi hisoblanadi. Masalan ,

他唱得很好。-Tā chàng dé hěn hǎo.— *U juda yaxshi kuylaydi.*

这朵花红极了。-Zhè duǒ huā hóng jí le.— *Bu gullar juda qizil.*

我去了三次。-Wǒ qù le sān cì.— *U uch marotaba bordi.*

Ushbu gaplardagi 很好, 极, 三次 so'zlari to'liqlovchi hisoblanadi.

Kesimdan so'ng kelib, uni tasvirlab keladigan bo'lak hol hisoblanadi. Masalan ,

小组讨论整整进行了一天 va 他很高兴 gapida 整整 hamda 很 so'zlari hol hisoblanadi. Hol ba'zan egadan oldin ham keladi. Masalan ,

昨天我们看了一场电影。-Zuó tiān wǒ men kàn le yī chǎng diàn yǐ ng.—

Kecha biz bir film ko'rdik. Ushbu gapda 昨天 o'rin holi hisoblanadi. Ushbu o'rin holi ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

Ega bo‘lagi agarda tobe munosabatli otli birikma bo‘lsa, uni tasvirlab kelayotgan bo‘lak aniqlovchi hisoblanadi. Masalan ,

我弟弟是学生。 -*Wǒ dìdì shì xuéshēng.* – *Mening ukam o‘quvchi.* Ushbu gapda 我 so‘zi aniqlovchi hisoblanadi. Olmosh so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

To‘ldiruvchi oldidan aniqlab kelgan bo‘lak ham aniqlovchi hisoblanadi. Masalan , 他是我的老师。 -*Tā shì wǒ de lǎoshī.* – *U mening o‘qituvchim.*

他们对我们表示热烈的欢迎。 -*Tāmen duì wǒmen biǎoshì rèliè de huānyíng.* – *Ular bizni samimiy kutib oldilar .*

Ushbu gaplarda 我的 , 热烈的 so‘zlari aniqlovchi hisoblanadi. 我的 - mening- so‘zi olmosh so‘z turkumiga oid bo‘lib, 的 –de egalik qo‘shimchasini olib kelgan. 热烈的- so‘zi ravish so‘z turkumiga oid so‘z bo‘lib, to‘ldiruvchini aniqlab kelmoqda.

Xitoy tilida oltita bo‘laklarning o‘rni bir xil emas. Ega bosh bo‘lagi kesim bosh bo‘lagiga, to‘ldiruvchi fe‘l kesimga, tovlilovchi fe‘l-kesim yoki sifat kesimga, hol ba‘zan kesimning butun bo‘lagiga ba‘zan kesimni aniqlab keladi, aniqlovchi esa ega yoki to‘ldiruvchini aniqlab keladi.

Fe‘l-kesimli gapga tayangan holda olsak, xitoy tilida gapdagi so‘zlar tartibi quyidagicha:

Aniqlovchi +ega/+hol+kesim+tovlilovchi+ aniqlovchi+to‘ldiruvchi⁶

Aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchi, to‘liqlovchi va ega, kesim hamda terminlar so‘z birikmasida qatnashgan so‘zlar va so‘zlar o‘rtasidagi grammatik munosabatni ifodalaydi.


Ot so‘z turkumiga oid so‘z gapning egasi yoki to‘ldiruvchisi bo‘lishidan qat’iy nazar aniqlovchi ot so‘z turkumiga oid so‘zni aniqlab keladi:

⁶实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-21.

Masalan ,小刘是北京人。 -Xiǎoliú shì běijīngrén. – *XiaoliuPekinlik*.

Ushbu gapda 北京 aniqlovchi, ot bilan ifodalangan, to‘ldiruvchini aniqlab kelmoqda. Turdosh ot hisoblanadi, ushbu gapning egasi 小刘, to‘ldiruvchisi 人 bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Gapning kesimi 是 hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda xitoy tilida gap bo‘laklari va ularning kesim bosh bo‘lagi yoki ega bosh bo‘lagiga tegishliligi ko‘rsatib o‘tilgan.



1.2. Xitoy tilida to‘ldiruvchi haqida umumiy ma’lumot

To‘ldiruvchi xitoy tilida 宾语 bīn yǔ deb nomlanadi, shuning bilan birga 受词 shouci deb ham nomlanadi, xitoy tilida to‘ldiruvchi harakatning qabul qiluvchisini bildiradi.

To'ldiruvchi egaga tegishli emas, to'ldiruvchi kesimga tegishli bo'lak hisoblanadi. U harakat-holatga tegishli bo'lgan predmetga ishora qiladi, harakat bildirgan holatni yanada to'liqroq, aniqroq bildirib keladi. Shuning uchun ham to'ldiruvchini fe'l (kesim) ning aloqador bo'lagi, tegishli obyektga deyish mumkin. To'ldiruvchi hech qanday yordamchi so'zlarga bog'liq emas, u to'g'ridan-to'g'ri fe'l bilan birikib, fe'lni boshqarish vazifasini qabul qiladi.⁷

To'ldiruvchining farqlanishi va old qismda keluvchi to'ldiruvchi

Ko'pgina vaziyatlarda ma'lum bir til bo'lagini aniqlashda to'ldiruvchi ikki holatda bo'ladi: birinchisi harakatga tegishli obyektga ifodalaydi, ikkinchisi esa fe'ldan so'ng keladi. Mazkur o'rinda fe'ldan so'ng keluvchi muhim holat hisoblanadi. Chunki xitoy tilida to'ldiruvchi to'g'ridan-to'g'ri harakatning qabul qiluvchi tomonidan belgilanmaydi. Masalan, 台上坐着主席团, 我家来了一位客人 gaplarida 主席团 va 一位客人 so'zlari qabul qiluvchi bo'lib, barchasi to'ldiruvchi hisoblanadi. Yuqorida ega gap bo'lagi haqida so'z yuritilganda aytib o'tilganidek, ega ham qabul qiluvchi aloqasiga ko'ra belgilanmaydi. Fe'l-kesimli gaplarda ega vato'ldiruvchining ajratilishi ularning gapdagi kelgan o'rniga ko'ra amalga oshiriladi, odatda fe'ldan oldin kelgan bo'lak ega bo'lagi bo'lib, fe'ldan keyin kelgan bo'lak to'ldiruvchi hisoblanadi. Masalan,

1) 三十个人吃一锅饭。⁸ *Sānshí gè rén chī yīguō fàn.* – O'ttiz kishi bir qozon ovqatni yeydi.

Usbu gapning to'ldiruvchisi 一锅饭 bir qozon ovqat bo'lib, mazkur to'ldiruvchi 吃 yemoqkesimining obyektga bo'lib, harakatni qabul qiluvchi obyektga bildirib kelmoqda, shuning uchun ham obyekt to'ldiruvchi hisoblanadi. Xitoy tilida obyekt to'ldiruvchi 受事宾语 shòushìbīnyǔ deb nomlanadi.

⁷实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-269.

⁸实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-269.

2) 一锅饭吃三十个人。 *Yīguō fàn chī sānshí gè rén . – Bir qozon ovqatni o‘ttiz kishi yeydi.*

Ushbu gapning to‘ldiruvchisi 三十个人 (o‘ttiz kishi), mazkur to‘ldiruvchi 吃 *yemoqfe*’lining bajaruvchisi bo‘lib, subyekt to‘ldiruvchi hisoblanadi. Xitoy tilida subyekt to‘ldiruvchi 施事宾语 *shīshìbīnyǔ* deb nomlanadi.

3) 太阳晒着花了⁹。 *Tàiyáng shài zhe huā le .*

4) 花晒着太阳了。 *Huā shài zhe tàiyang le .*

Uchinchi va to‘rtinchi misollarda holat bir xil. Obyekt to‘ldiruvchi va subyekt to‘ldiruvchidan tashqari, na obyekt to‘ldiruvchi va na subyekt to‘ldiruvchilar bo‘lmagan to‘ldiruvchilar turi ham mavjud. Masalan :

5) 这种花叫二月兰。 *Zhè zhǒng huā jiào èr yuèlán. –*

Ushbu turdagi gul eryuelan deb nomlanadi.

Ushbu gapda 二月兰 so‘zi to‘ldiruvchi hisoblanib, na subyekt va na obyekt to‘ldiruvchi hisoblanadi.

6) 我们都是同事。 *Wǒmen dōushì tóngshì. – Bizlar hamkasblarmiz.*

Mazkur gapning to‘ldiruvchisi 同事 so‘zi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

7) 小芳不象她的妈妈，象爸爸。 *Xiǎofāng búxiàng tā de māmā , xiàng bàba. – Xiaofang onasiga o‘xshamaydi, otasiga o‘xshaydi.*

Mazkur gapning to‘ldiruvchisi 妈妈 va 爸爸 so‘zlari hisoblanadi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

⁹O`shamanba.-页-269.

8) 我们的宿舍楼前边有一个网球场和一个排球场。¹⁰ *Wǒmen de sùshè lou qián bian yǒu yí gè wǎngqiúchǎng hé yí gè páiqiúchǎng . – Bizning yotoqxon ro‘parasida bitta tennis maydonchasi va bitta volleybol maydonchasi bor.*

Ushbu gap to‘ldiruvchisi 网球场 va 排球场 so‘zlari hisoblanadi. Yuqoridagi to‘rtta misolda ifodalangan to‘ldiruvchilar subyekt to‘ldiruvchi ham obyekt to‘ldiruvchi ham hisoblanmaydi.

To‘ldiruvchi kesimdan oldin ham kelishi mumkin, bu o‘rinda u old qismda keluvchi to‘ldiruvchi deb nomlanadi. Xitoy tilida old qismda keluvchi to‘ldiruvchi 前置宾语 qiánzhìbīnyǔ deb nomlanadi. Masalan :

9) 我上海去过 , 广州没去过. *Wǒ shànghǎi qùguò , guǎngzhōu méi qùguò .*

Men Shanhayga borganman, Guangjouga bormaganman.

Ushbu gapda 上海 va 广州 so‘zlari gapda to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, ular kesimdan oldin kelganliklari uchun old qismda keluvchi to‘ldiruvchi deb nomlanadi.

10) 他这也不吃 , 那也不吃. *Tā zhè yě bú chī nà yě bú chī.*

U buni ham yemaydi, uni ham yemaydi.

Ushbu gapda 这 va 那 so‘zlari gapning to‘ldiruvchi hisoblanib, old qismda keluvchi to‘ldiruvchi deb nomlanadi.

11) 他谁都不认识. *Tā shuí dōu bú rènshi. – U hec kimni tanimaydi.*

Mazkur gapning to‘ldiruvchisi 谁 so‘zi bo‘lib, olmosh so‘z turkumiga oid kishilik olmoshi bilan ifodalangan, old qismda keluvchi to‘ldiruvchi hisoblanadi.

¹⁰实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-270.

12) 这次听写，他一个字也没写错。 *Zhècì tīngxiě, tā yí gè zì yě méi xiě cuò.* – *Shu safargi diktantda u umuman xato qilmadi.*

Ushbu gapda 字 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, old qismda keluvchi to‘ldiruvchi hisoblanadi, ot soz turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

Old qismda keluvchi to‘ldiruvchi chegaralangan. Gapda harakatni qabul qiluvchi subyekt kelib, bundan tashqari gapdagi harakatni qabul qiluvchi obyekt harakatni qabul qiluvchi subyektdan so‘ng kelganidagina, bunday obyekt qabul qiluvchi old qismda keluvchi to‘ldiruvchi bo‘la oladi. Old qismda keluvchi to‘ldiruvchi ko‘pincha ko‘rsatish va tanlash mazmunidagi gaplarda keladi. Misol qilib yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan, tahlil qilingan gaplarni keltirish mumkin.

Agarda harakatni qabul qiluvchi obyekt harakatni qabul qiluvchi subyektdan oldin kelsa, bunday gap subyekt-predikativ gap deb nomlanadi, harakatni qabul qiluvchi obyekt butun gapni tushuntirib beruvchi, hikoya qilib beruvchi obyektga aylanadi, bu bo‘lak ega hisoblanadi. Masalan :¹¹

13) 上海我去过，广州我没去过。 *Shànghǎi wǒ qùguò, guǎngzhōu wǒ méi qùguò.* – *Shanhayga men borganman, Guanjouga bormaganman.*

14) 这他也不吃，那他也不吃，不知他要吃什么。 *Zhè tā yě bú chī, nà tā yě bú chī, bú zhī tā yào chī shénme.* – *U buni ham yemaydi, uni ham yemaydi, u nima yeyishini bilmayman.*

15) 谁他都不认识。 *Shuí tā dōu bú rènshi.* – *U hech kimni tanimaydi.*

16) 这次听写，一个字他都没写错。 *Zhècì tīngxiě, yí gè zì tā dōu méi xiěcuò.* – *Bu safargi diktantda u bir so‘zni ham xato yozmabdi.*

Shunday turdagi subyekt-predikativ gaplar ko‘rsatish yo tanlash mazmunidagi gaplar bo‘lishi shart emas. Masalan :

¹¹实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-270.

17) 这类书我看过了，还不错。 *Zhè lèi shū wǒ kàn guò le hái bú cuò.* –

Bu turdagi kitoblarni men o‘qib ko‘rganman, juda yaxshi.

18) 小李我认识。 *Xiǎolǐ wǒ rènshi.* – *Xiaolini men taniyman.*

Ba‘zi gaplarda fe‘l-kesimga tegishli bo‘lgan obyekt ikkita bo‘ladi, gapda ikkita to‘ldiruvchi keladi. Masalan :

19) 张老师教我们汉语。 *Zhāng lǎoshī jiào wǒmen hànyǔ.* – *Ustoz Jang bizga xitoy tilidan saboq beradilar.*

20) 王老师告诉我们班下午上答疑课。 – *Wáng lǎoshī gào sù wǒmen bān xiàwǔ shàng dāyíkè.* – *Ustoz Vang bizning guruhga tushlikdan so‘ng savollarga javob berish darsi bo‘lishini aytdi.*

Yuqoridagi (19, 20) gaplardagi kesim ikki to‘ldiruvchiga ega: biri odamga ishora qiladi (yoki guruh, bo‘lim, biri predmetga ishora qiladi. Predmetga ishora qiluvchi vositasiz to‘ldiruvchi deb nomlanadi, odamga ishora qiluvchi vositali to‘ldiruvchi deb nomlanadi. Gapning tuzilishiga ko‘ra, vositali to‘ldiruvchi kesimdan so‘ng keladi, vositasiz to‘ldiruvchi esa vositali to‘ldiruvchidan keyin keladi, masalan yuqorida berilgan gapda 我们, 我们班 so‘zlari vositali to‘ldiruvchi bo‘lib, 汉语, 答疑课 so‘zlari vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi. ¹²

Xitoy tilida to‘ldiruvchi ikki turga bo‘linadi:

- ✓ 直接宾语 Zhíjiē bīnyǔ ---vositasiz to‘ldiruvchi;
- ✓ 间接宾语 Jiànjiē bīnyǔ ---vositali to‘ldiruvchi;

Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchi harakatni butunlay o‘ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi, vositali to‘ldiruvchi harakatni butunlay o‘ziga qabul qilmaydi, lekin harakat ta’sir etgan obyektini qabul qiladi. Odatda o‘timli fe‘ldan so‘ng kamida bitta to‘ldiruvchi keladi, mazkur to‘ldiruvchi ko‘p hollarda vositasiz

¹²实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-270.

to'ldiruvchi bo'ladi, ba'zi o'timli fe'llar ikkita to'ldiruvchini talab qiladi, ushbuikki to'ldiruvchidan biri vositasiz to'ldiruvchi, yana biri esa vositali to'ldiruvchi bo'ladi.

O'zbek tilida to'ldiruvchilar ham ikkiga bo'linadi:

1. Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiradi va kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu to'ldiruvchi ko'pincha tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi, bunda u harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi:

1) Ot bilan: Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar.

2) Olmosh bilan: Sizni chaqirishyapti.

3) Otlashgan so'zlar bilan:

otlashgan sifat bilan: Yaxshini maqtasang yarashadi;

otlashgan son bilan: Uchni o'nga ko'paytiring;

otlashgan sifatdosh bilan: Bo'linganni bo'ri yer;

otlashgan ravish bilan: Ko'pini sizdan o'rgangan;

otlashgan taqlid so'z bilan: Etigining g'arch-g'urchini eshitdi;

otlashgan undov so'z bilan: Oh-vohini hech kim sezmasin;

otlashgan modal so'z bilan: Borini sarfladi.

4) Ibora bilan: O'ziga birovning oz-moz til tekizishini ko'tarmasdi.

5) So'z birikmasi bilan: Sen ko'rganni u ham ko'rgan.

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti. Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: Qani oshdan oling!

2. Vositali to'ldiruvchi kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1) Ot bilan: Xatni qalam bilan yozdim.

2) Olmosh bilan: Ravshan sen bilan boradi.

3) Otlashgan so'zlar bilan:

otlashgan sifat bilan: Yaxshiga yondash, yomondan qoch;
otlashgan son bilan: Beshdan ikkini ayirish kerak;
otlashgan sifatdosh bilan: Aytganimga ko‘nishmadi;
otlashgan ravish bilan: Kamiga uzr so‘raymiz;
otlashgan taqlid so‘z bilan: Zambaraklarning gumbur-gumburiga quloq soldi;
otlashgan undov so‘z bilan: Uning dod-voyiga quloq solmadi;
otlashgan modal so‘z bilan: Boriga shukur qilish kerak.

4) Ibora bilan: Og‘zi bo‘shga ishonib bo‘lmaydi.

5) So‘z birikmasi bilan: Kecha kelmaganlarga xabar berish kerak.

Ko‘makchilar yordamida shakllangan vositali to‘ldiruvchilar bilan xuddi shu ko‘rinishda shakllangan vaziyat hollari savollarga qarab farqlanadi: Paxta mashina bilan terildi (nima bilan? – to‘ldiruvchi). Paxta zavq bilan terildi (qanday?– hol). Jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi so‘zlar doimo to‘ldiruvchi bo‘lib kelavermaydi, ular hol vazifasini ham bajaradi, bunda ham ular savolga qarab farqlanadi: U yolg‘ondan (yolg‘ondakamiga, jo‘rttaga) hayron bo‘ldi (qanday? – hol). U akasidan eshitdi (kimdan?– to‘ldiruvchi). U maktabga bordi (qayerga?– hol). Menga gapirdi (kimga?– to‘ldiruvchi).

A.A.Dragunov xitoy tilida to‘ldiruvchilarni ikki asosiy turga ajratadi: nopredikat va predikat to‘ldiruvchilar.

Ko‘pgina xitoylik tilshunoslar fe‘ldan so‘ng kelgan ot so‘z turkumiga oid so‘zni fe‘l bilan qanday aloqada bo‘lishidan qat’iy nazar to‘ldiruvchi deb hisoblaydilar. Agar “to‘ldiruvchi” terminini shunday tushunadigan bo‘lsak, u holda xitoy tilidagi har bir fe‘lni o‘timli fe‘l deb atash kerak, chunki har bir fe‘ldan so‘ng ot so‘z turkumiga oid so‘z kelishi mumkin. Shuning uchun ko‘pgina fe‘ldan so‘ng kelgan otni to‘ldiruvchi deb hisoblovchi tilshunoslar fe‘llarni o‘timli va o‘timsiz turlarga ajratishni tan olmaydilar. Fe‘ldan so‘ng kelgan ko‘makchisiz har bir ot so‘z turkumiga oid so‘zni to‘ldiruvchi deb atash kerak emas. Dragunov vositasiz to‘ldiruvchi deb faqatgina fe‘ldan so‘ng kela oladigan emas, fe‘ldan oldin ham kela oladigan so‘zni atashni taklif etgan.

Xitoy tilida to‘ldiruvchi fe‘l bilan yaqin bog‘langan bo‘lib, yevropa tillarida Nima qilyapsan? savoliga bir fe‘l yordamida javob berish mumkin, masalan , o‘qiyapman, yozyapman va boshqalar., xitoy tilida esa bunday qilib bo‘lmaydi, fe‘ldan so‘ng albatta ob‘yekt kelishi shart, masalan gazeta o‘qiyapman 看报 , xat yozyapman 写信 va boshqalar.¹³

To‘ldiruvchining qo‘llanilishi :

请让我看看你的票。 *Qǐng rang wǒ kàn kàn nǐ de piào.* – *Chiptalaringizni (vositali to‘ldiruvchi) menga (vositasiz to‘ldiruvchi) ko‘rsating.*

Mazkur gapda 我 vositasiz to‘ldiruvchi, olmosh so‘z turkumiga oid, kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo‘lib, 票 vositasiz to‘ldiruvchi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

To‘ldiruvchi odatda o‘timli fe‘ldan so‘ng kelib, harakat ishora qilayotgan obyektни ifodalaydi.

名词作宾语--Míngcí zuò bīnyǔ--: To‘ldiruvchi ot bilan ifodalanishi :

请出示护照。 *Qǐng chūshì hùzhào.* - *iltimos pasportingizni ko‘rsating.*

Ushbu gapda 护照 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

代词作宾语--Dàicí zuò bīnyǔ--: Olmosh bilan ifodalanishi :

她什么也没说。(此处为反身代词) *Tā shénme yě méi shuō.* – *U hech narsa demadi.*

Yuqoridagi gapda 什么 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda, olmosh so‘z tukumiga oid, kishilik olmoshi bilan ifodalangan.

¹³ Члены предложения в китайском языке в сравнении с монгольским языком.Адъяа Гэрэлмаа.автореферат диссертации по филологии.2007 г.

数词作宾语-Shù cí zuò bīnyǔ -: Son bilan ifodalanishi:

你要几个？ - 我要两个。 *Nǐ yào jǐ gè? - Wǒ yào liǎng gè.*

Senga nechta kerak? - Menga ikkita kerak.

Yuqoridagi gapda 两个 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, son so‘z turkumiga oid so‘z hamda hisob so‘z bilan ifodalangan.

你要多少牛奶？ — 一瓶。 *Nǐ yào duō shǎo niú nǎi? — Yī píng.* — *Senga qancha sut kerak? - Bir shisha.*

Mazkur gap to‘ldiruvchisi 一瓶 bo‘lib, son hamda hisob so‘z birikmasi bilan ifodalangan.

名词化的形容词作宾语: --Míngcí huà de xíngróngcí zuò bīnyǔ

--Otlashgan sifat bilan ifodalanishi:

他们把伤员送到医院。 *Tāmen bǎ shāngyuán sòng dào yīyuàn.* — *Ular shikastlanganni kasalxonaga yuvorishdi.*

Mazkur gap to‘ldiruvchisi 伤员 so‘zi hisoblanib, otlashgan sifat bilan ifodalangan, ushbu gap 把 old ko‘makchili gap hisoblanadi.

不定式或ing 形式作宾语: Noaniq shakl bilan ifodalanishi

他们要求看我的护照。 *Tāmen yāoqiú kàn wǒ de hùzhào.* — *Ular meni pasportimni ko‘rsatishimni so‘rashdi.*

Ushbu gapda 护照 so‘zi to‘ldiruvchi hisoblanib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

我和你们一道工作很愉快。 *Wǒ hé nǐmen yīdào gōngzuò hěn yúkuài.* — *Men sizlar bilan birga ishlaganimdan hursandman .*

Ushbu gapda 你们 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

从句作宾语:--Cóngjù zuò bīnyǔ:--Gap bilan ifodalanishi

你把他的话写下了没有？ *Nǐ bǎ tā dehuà xiě xiàle méiyǒu?* – Sen uning gaplarini yozib oldingmi yo‘qmi?

Ushbu gapda 他的话 birikmasi to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, to‘ldiruvchi gap bilan ifodalangan.

To‘ldiruvchining grammatikadagi o‘rni

Bog‘lovchi vosita so‘zlar

To‘ldiruvchi ergash gapning bosh gapni ergash gap bilan bog‘lovchi vositalari uch xil bo‘ladi:

1. Darak gapdan tuzilgan to‘ldiruvchi ergash gap , gaplarni bog‘lovchi vosita ingliz tilida that yordamchi so‘zi qo‘llaniladi, xitoy tilida esa bog‘lovchi vositalarsiz ohang bilan ikki sodda gap bog‘lanadi. O‘zbek tilida ushbu gaplar sodda gaplar hisoblanadi.

Masalan:

我认为他会坐火车来这儿的。 -*Wǒ rènwéi tā huì zuò huǒchē lái zhè'ér de.*

Tarjimasi: Men uni bu yerga poyezdda keladi deb o‘ylabman.

I think (that) he will come here by train.

2. Oddiy so‘roq gapdan tuzilgan to‘ldiruvchi ergash gap, gaplarni bog‘lovchi vosita ingliz tilida if yoki whether so‘zlari bo‘lib, xitoy tilida gaplar bog‘lovchi vositalarsiz ohang yordamida bog‘lanadi.

Masalan ,

他问我是否知道他的新地址。 *Tā wènwǒ shìfǒu zhīdào tā de xīn dìzhǐ*

Tarjimasi: U mendan uning yangi mazilini bilish-bilmasligimni so‘radi.

He asked me if / whether I knew his new address.

3. Maxsus so‘roq gapdan tuzilgan to‘ldiruvchi ergash gap, gaplarni bog‘lovchi vosita maxsus so‘roq so‘zlar qachon, nima, qayer va boshqalar hisoblanadi.

Masalan :

我想知道你昨天什么时候到家的。

Wǒ xiǎng zhīdào nǐ zuótiān shénme shíhòu dàojiā de .U sen kecha uyga soat nechada kelganingni bilmoqchi.

I want to know when you got back home yesterday.

So‘z tartibi

To‘ldiruvchi ergash gapdagi so‘zlar tartibi huddi darak gap tartibidek,

主语-Zhǔyǔ-Ega + 谓语- Wèiyǔ-Kesim + 宾语-Bīnyǔ-To‘ldiruvchi+ 其他

boshqalar. Ya’ni so‘roq gap to‘ldiruvchi ergash gapga aylantirilgan vaqtda so‘roq gap so‘zlar tartibini darak gap so‘zlar tartibiga o‘zgartirish lozim.

Masalan ,

你能告诉我他明天将要做什么吗？

Nǐ néng gàosù wǒ tā míngtiān jiāngyào zuò shénme ma ?

U ertaga nima qilmoqchiligini menga ayta olasanmi?

Mazkur so‘roq gap to‘ldiruvchi ergash gapda ega vazifasida kelganda, so‘z tartibi o‘zgarmaydi.

Masalan ,

你知道什么事使他如此兴奋吗？*Ni zhīdao shénme shì shì ta rúci xìngfèn*

ma? – U nima shunchalik hayratga solishini bilasizmi?

我不知道他出什么事了。*Wo bu zhīdao ta chu shénme shì le. – Unga nima bo‘lganligini bilmayman.*

Vaqt kategoriyasi

Bosh gap odatda hozirgi zamonda bo‘lib, to‘ldiruvchi ergash gap holatga qarab istalgan vaqtda kelishi mumkin; lekin bosh gap o‘tgan zamonda bo‘lsa, to‘ldiruvchi ergash gap o‘tgan zamondagi ma’lum bir vaqtni ifodalaydi.

Masalan ,

她说她将要坐公交车来。*Ta shuo ta jiang yao zuo gongjiao che lai.*

She tells me that she will come by bus.

U avtobusda kelishi aytadi.

Ushbu gapda 公交车 soʻzi toʻldiruvchi vazifasida kelmoqda, toʻldiruvchi ot soʻz turkumiga oid soʻz bilan ifodalangan. Ingliz, oʻzbek va rus tillarida murakkab gaplarda zamon aniq ifodalanadi, xitoy tilida esa ergash gapli qoʻshma gaplarda bu jihatni uchratmaymiz.

她说她将要坐公交车来。 *Tā shuō tā jiāngyào zuò gōngjiāo chē lái.* – *U avtobusda kelishini aytdi.*

She told me that she would come by bus.

Agarda toʻldiruvchi ergash gap ifodalayotgan maʼno ilm-fan doirasida, aniq fakt boʻlsa, harakatni bildiruvchi feʼl odatda hozirgi zamonda keladi.

Masalan ,

老师告诉我们说太阳比月球大得多。 *Lǎoshī gàosù wǒmenshuō tàiyángbǐ yuèqiú dà dé duō.*

Ustoz bizga quyosh oydan ancha kattaligini aytdi.

Our teacher told us that the sun is much bigger than the moon.

Xitoy tilida toʻldiruvchi odatda feʼldan soʻng keladi, lekin boshqa turlari ham boʻlib ular haqida keyinroq maʼlumot berib oʻtamiz. Toʻldiruvchi odatda ot va olmosh soʻz turkumidagi soʻz bilan ifodalanadi.

Masalan :

我喝茶。 – wǒ hē chá - 茶 shu oʻrinda toʻldiruvchi.

Xitoy tilida toʻldiruvchi oʻzbek va rus tillari kabi vositali va vositasiz turlarga boʻlinadi. Feʼl-obʼyekt konstruksiya orqali ifodalangan toʻldiruvchilar ham mavjud boʻlib, rus tiliga ushbu konstruksiya bir soʻz boʻlib tarjima qilinadi, yaʼni xitoy tilidagi soʻz birikmasi rus tilida bir soʻzga teng keladi, oʻzbek tilida ham bir soʻz ham soʻz birikmasiga teng keladi. Masalan ,

吃饭 – chīfàn - ovqatlanmoq, ovqat yemoq ;

吸烟 – xīyān –chekmoq, sigareta chekmoq ;

Bunday konstruksiyalarga aniqlik kiritiladigan bo'lsa, ular vositasiz to'ldiruvchilarga aylanadi:

吃晚饭 – chī wǎnfàn – kechki ovqatni yemoq ;

To'ldiruvchini ifodalovchi so'zlar

To'ldiruvchi asosan ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalanadi.

Masalan :

看中国古典小说.*Kàn zhòng guó gǔdiǎn xiǎoshuō. Tarjimasi : Mumtoz xitoy asarlarini o'qish.*

Mustaqil ma'noli olmosh so'z turkumiga oid so'z to'ldiruvchini ifodalab kelishi mumkin. Masalan,

你要什么? *Nǐ yào shénme? - Tarjimasi : Senga nima kerak?*

Lekin xitoy tilida to'ldiruvchi faqatgina mustaqil ma'noli so'zlar bilan ifodalanibgina qolmay, predikat ham to'ldiruvchini ifodalab kelishi mumkin. Bu xitoy tilining o'ziga xosliklaridan biridir.

Misol uchun :

女孩儿都爱漂亮。 *Nǚháiér dōu ài piàoliang. – Qizlar go'zallikni yoqtirishadi.*

Ushbu gapda to'ldiruvchi sifat so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan. Bu so'z otlashgan sifat hisoblanadi. Vositasiz to'ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifdalangan.

她特别喜欢游泳。 ¹⁴*Tā tèbié xǐhuān yóuyǒng. – U suzishni juda yoqtiradi.*

Ushbu gapda fe'l so'z turkumiga oid so'z to'ldiruvchini ifodalab kelgan. Ushbu to'ldiruvchi ham vositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi.

你们准备接他的班。 *Nǐmen zhǔnbèi jiē tā debān. — Siz ularni guruhini kutib olishga tayyorlaning.*

¹⁴现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京：北京大学出版社，2009.页 39.

Ushbu gapda to‘ldiruvchi fe’lli birikma bilan ifodalangan bo‘lib, vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi.

我认为人人都会这样做的。 *Wǒ rènwéi rénrén dūhuì zhèyàng zuò de.*---
Menimcha hamma shunday qila oladi.

Ushbu gapda to‘ldiruvchi ega-kesimli birikma orqali ifodalangan bo‘lib, vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi.¹⁵

Zamonaviy xitoy tilida to‘ldiruvchi

To‘ldiruvchi harakat yo‘nalgan obyektini ifodalab, doim fe’ldan so‘ng keladi. Ot, olmosh, son , otlashgan sifat, noqaniq shakl, otlashgan fe’l, to‘ldiruvchi ergash gap bilan ifodalanib keladi.

(1) ot bilan ifodalangan to‘ldiruvchi -名词性宾语

Misol uchun :

玫瑰花我给你们俩十朵 ,给你紫红的 ,给她粉红的。 *Méiguī huā wǒ gěi nǐ men liǎ shí duǒ , gěi nǐ zǐ hóng de , gěi tā fěnhóng de.*

Men ikkalangizga 10 buket atirgul beraman, senga siyohrang, unga pushti .

Ushbu gapda to‘rtta to‘ldiruvchi qatnashgan, 玫瑰花 atirgul- vositasiz to‘ldiruvchi, 你们 va 你, 她 lar vositali to‘ldiruvchi hisoblanib, ular qo‘shma to‘ldiruvchilardir. Vositasiz to‘ldiruvchi ot bilan, vositali to‘ldiruvchilar esa olmosh bilan ifodalangan.

(2) Predikat bilan ifodalangan to‘ldiruvchi

Masalan :

最有效的防御手段是进攻。 (动词作宾语) *Zuì yǒuxiào de fángyù shǒu duàn shì jìngōng.* (*Dòngcí zuò bīnyǔ*)

¹⁵现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京:北京大学出版社, 2009.1.-页.39.

Mudofaaning eng samarali vositasi bu hujum. (to'ldiruvchi fe'l bilan ifodalangan)

谁说女子不如男？ (主谓短语作宾语) *Shuí shuō nǚzǐ bùrú nán?* (*Zhǔ wèi duǎnyǔ zuò bīnyǔ*)

Kim ayollar erkaklarga yetisholmaydi deydi? (to'ldiruvchi ega va kesim birikmasi bilan ifodalangan)

早上一起床，大家发现风停了，浪也静了。(复句形式作宾语) *Zǎoshàng yīqǐchuáng, dàjiā fāxiàn fēng tíngle, làng yě jìngle.* (*Fùjù xíngshì zuò bīnyǔ*)

Ertalab turishligi bilanoq hamma shamol to'xtaganini, bo'ron sokinlashganligini sezdi. (to'ldiruvchi murakkab gap bilan ifodalangan)

Birinchi bob bo'yicha xulosalar:

1. Xitoy tilida gap dastlab ikki katta bo'laklarga bo'linadi. Birinchisi ega qism bo'lagi. Ikkinchisi kesim qism bo'lagi hisobalanadi. Xitoy tilida 主语部分, 谓语部分 deb nomlanadi.

2. Ega qism bo'lagiga ega va aniqlovchi gap bo'lagi kiradi.

3. Kesim qism bo'lagiga kesim, to'ldiruvchi, to'liqlovchi va hol gap bo'laklari kiradi.

4. To'ldiruvchi xitoy tilida 宾语 bīn yǔ hamda 受词 shouci deb ham nomlanadi. Xitoy tilida vositasiz to'ldiruvchi harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi, vositali to'ldiruvchi harakatni butunlay o'ziga qabul qilmaydi, lekin harakat ta'sir etgan ob'yektni qabul qiladi.

5. Xitoy tilida to'ldiruvchi ot, olmosh, otlashgan sifat, predikat hamda gap bilan ifodalanilishi mumkin.

6. Xitoy tilida to'ldiruvchi harakat qabul qiluvchiga tegishliligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: obyekt to'ldiruvchi va subyekt to'ldiruvchi.

7. Old qismda keluvchi to'ldiruvchilar kesimdan oldin keladi, lekin barcha kesimdan oldin kelgan to'ldiruvchini old qismda keluvchi to'ldiruvchi deb atamaymiz.

8. Ham subyekt to'ldiruvchi ham obyekt to'ldiruvchi bo'lmagan to'ldiruvchi turlari ham mavjud

II BOB. Xitoy tili grammatikasida to'ldiruvchi turlari

2.1. Xitoy tilida vositali to'ldiruvchi va uning ifodalanishi

Subyektga ishora qiluvchi bo'lak vositali to'ldiruvchi deb nomlanadi, xitoy tilida 间接宾语 *ji ànji ēb īnyǔ* deb ataladi. Vositali to'ldiruvchi harakatni

butunlay o‘ziga qabul qilmaydi, lekin harakat ta’sir etgan obyektini qabul qiladi. Gapda odatda kesimdan so‘ng keladi.

Vositali to‘ldiruvchi ko‘makchilar bilan birga qo‘llasa bo‘ladi, shuning bilan birga ko‘makchilarsiz ham.

Vositali to‘ldiruvchi ko‘makchilarsiz 给 gěi (bermoq), 问 wèn (so‘ramoq), 送 sòng (sovg‘a qilmoq) va boshqa fe‘llar bilan birga qo‘llaniladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan fe‘l 给 gěi hisoblanadi.

So‘zlar tartibi quyidagicha bovladi:

“Ega –kesim-vositali tovlidiruvchi-vositasiz to‘ldiruvchi”

Masalan :

我给他一本书。 *Wǒ gěi tā yī běn shū. – Men unga bitta kitobni berdim.*

Ushbu gapda 他 vositali to‘ldiruvchi, olmosh so‘z turkimiga oid so‘z ya’ni, kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo‘lib, kesimdan so‘ng keladi. 书 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, gapda vositali to‘ldiruvchidan so‘ng keladi.

我的朋友送我很有意思的书。

Wǒ de péngyǒu sòng wǒ hěn yǒuyìsi de shū

Mening do‘stim menga juda qiziqarli kitobni berdi.

Ushbu gapda 我 vositali to‘ldiruvchi, olmosh so‘z turkimiga oid so‘z, ya’ni, kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo‘lib, kesimdan so‘ng keladi. 书 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, gapda vositali to‘ldiruvchidan so‘ng keladi.

李老师教我们汉语语法。

Lǐ lǎoshī jiào wǒmen hànyǔ yǔfǎ

Li ustoz bizga xitoy tili grammatikasini o‘rgatadi.

Ushbu gapda 我们 vositali to'ldiruvchi , olmosh so'z turkimiga oid so'z , ya'ni , kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lib, kesimdan so'ng keladi.汉语语法 so'z birikmasi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan, gapda vositali to'ldiruvchidan so'ng keladi.

Vositali to'ldiruvchi ko'makchilar bilan ifodalanishi:

Bunday ko'makchilarga quyidagi ko'makchilar kiradi:

1) 给 gěi (给 gěi fe'li bilan emas). Mazkur ko'makchi odatda *kimga?* , *nimaga?* savollariga javob bo'ladigan to'ldiruvchilar bilan qo'llaniladi.

Masalan :

我给妈妈写信。

Wǒ gěi mā mā xiě xìn. ---Men onamga xat yozaman.

Mazkur gapda 妈妈 vositali to'ldiruvchi , ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan bo'lib, kesimdan so'ng keladi.信 so'zi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan, gapda vositali to'ldiruvchidan so'ng keladi.

给 gěi ko'makchisi bilan vositali to'ldiruvchi kesimdan oldin ham , kesimdan keyin ham (我送给他很有意思的书) kelishi mumkin hamda gapning ohirida ham (爸爸做饭给我们) kelishi mumkin, lekin bu o'rinda talaffuz qilish ozgina qiyinroq bo'lishi mumkin.

2) 用 yòng -fe'l sifatida *foydalanmoq* deb tarjima qilinadi, ko'makchi sifatida ham aynan shu ma'noda ishlatiladi, odatda *nima bilan?* savoliga javob bo'ladigan to'ldiruvchilar bilan qo'llaniladi.

Masalan :

请问 , 这个词用汉语怎么说?

Zhè ge cí yòng hànyǔ zěnme shuō?

Bu so‘zni xitoy tilida qanday aytilishini aytib yuborolmaysizmi?

Mazkur gapda 汉语 so‘zi vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

用 ko‘makchisi faqatgina kesimdan oldin keladi.

Gap qurilishi quyidagi bo‘ladi:

请问，这个词 (ega) 用 (ko‘makchi) 汉语 (vositali to‘ldiruvchi) 怎么说 (fe’l)?

3) 跟 (gēn), 和 (hé), 同 (tóng)

Ushbu ko‘makchilar odatda *kim bilan?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi to‘ldiruvchini ifodalaydi.

你看，她跟谁跳舞?

Nǐ kàn tā gēn shéi tiàowǔ?--Qaragin, u kim bilan raqsga tushmoqda?

Ushbu o‘rinda to‘ldiruvchi olmosh bilan ifodalangan. 谁 so‘zi vositali to‘ldiruvchi hisoblanadi, gapda *kim bilan?* savoliga javob bermoqda.

我和他是最好的朋友。

Wǒ hé tā shì zuìhǎo de péngyǒu.--Men u bilan eng yaqin do‘stlarmiz.

Ushbu gapda to‘ldiruvchi kishilik olmoshi 他 bilan ifodalangan. 他 so‘zi vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelib, 和 ko‘makchisi bilan birga qo‘llanilmoqda, gapda “ u bilan “ deb tarjima qilinadi.

我同他们去电影院。

Wǒ tóng tāmen qù diànyǐngyuàn.--Men ular bilan birga kinoteatrda bordim.

Ushbu o‘rinda to‘ldiruvchi kishilik olmoshi bilan ifodalangan. 他们 so‘zi gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, 同 ko‘makchisi bilan birga qo‘llanilib kelmoqda.

Yuqoridagi ko‘makchilar faqatgina kesimdan oldin qo‘llanilib, quyidagi tartibda keladi:

你 (ega) 跟 (ko‘makchi) 他 (vositali to‘ldiruvchi) 认识 (fe’l) 吗?

Sen u bilan tanishmisan?

Yana bir jihatga e‘tiborimizni qaratishimiz lozimki, yuqoridagi ko‘makchilarning inkor shakli ko‘makchidan oldin inkor yuklamasi qo‘yish bilan hamda kesimdan oldin inkor yukalamalarini qo‘yish bilan ifodalash mumkin.

Kesimdan oldin inkor yuklamasini faqatgina kesim harakatni ifoda etmagan fe’l bilan ifodalangandagina qo‘llash mumkin, masalan 知道 (zhīdao, bilmoq), 有 (yǒu, ega bo‘lmoq), 注意 (zhùyì, e‘tibor qaratmoq), 明白 (míngbai, tushunmoq), 认识 (rènshi, tanimoq).

Masalan :

我跟他不认识 – Wǒ gēntābúrènrshi – *Men u bilan tanish emasman.*

Mazkur gapda 他 vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda, gapda 跟 –bilan- ko‘makchisi bilan qo‘llanilgan bo‘lib, gap inkor shaklda. Inkor yuklamasi qoidada aytib o‘tilganidek, fe’ldan oldin, ko‘makchili to‘ldiruvchidan keyin keladi.

4) 对 duì

Mazkur ko‘makchi odatda *kimga?*, *nimaga?* hamda *ga ko‘ra, nimadir uchun* va boshqa so‘roqlariga javob beradigan to‘ldiruvchilar bilan qo‘llaniladi.

我对中国历史感兴趣。

Wǒ duì zhōngguó lìshǐ gǎn xìngqù.--Men xitoy tarixiga qiziqaman.

Mazkur gap to‘ldiruvchisi 历史 so‘zi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Gapda 对 ko‘makchisi bilan birga qo‘llanilgan.

对 ko‘makchisining gapdagi o‘rni har xil bo‘lishi mumkin.

Gap boshida , masalan:

对 (ko‘makchi)这个情况 (vositali to‘ldiruvchi) , 我 (ega) 不太清楚 (kesim) – Men bu vaziyat haqida uncha

Kesimdan oldin , masalan:

我 (ega) 对 (ko‘makchi)中国历史 (vositali to‘ldiruvchi) 感 (kesim) 兴趣 (vositasiz to‘ldiruvchi) – Men Xitoy tarixiga qiziqaman.

Agar kesim sifat yoki harakatni ifodalamaydigan fe‘l bilan ifodalangan bo‘lsa inkor yuklamasi kesimdan oldin keladi:

Masalan :

对这个情况 , 我不太清楚。

Duì zhè ge qíngkuàng wǒ bú tài qīngchǔ.

Bu vaziyat haqida uncha tanish emasman.

Mazkur gapda 情况 so‘zi vositali to‘ldiruvchi bo‘lib, 对 old ko‘makchisi bilan qo‘llanilib kelgan. Ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

5) 替 ti – mazkur ko‘makchi “o‘rniga”, “uchun” ma’nosini anglatadi.

我替他的成功很高兴。

Wǒ tì tā de chénggōng hěn gāoxìng.--Men uning uchun hursandman!

Mazkur gap to‘ldiruvchisi 成功 so‘zi hisoblanib, 替 old ko‘makchisi bilan birga qo‘llanilib kelmoqda, gapda vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

Ushbu ko‘makchi gapda faqat kesimdan oldin qo‘llanilishi kerak.

请你替我问妈妈好。

Qǐng nǐ tì wǒ wèn mā mā hǎo.--Mendan onangga salom ayt.

Ushbu gapda 我 so‘zi vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, olmosh so‘z tukumiga oid so‘z, ya’ni kishilik olmoshi bilan ifodalangan.

Eslatma: agarda gapda vositali to‘ldiruvchi bilan modal fe’l, ravish, yordamchi so‘zlar yoki inkor yuklamasi kelgan bo‘lsa, ularning hammasi vositali to‘ldiruvchidan oldin keladi.

Masalan :

我不会用汉语说。

Wo buhui yong hanyu shuo. --Men xitoy tilida gapirmayman.

Ushbu gapda 汉语 so‘zi vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelib, 用 ko‘makchisi bilan birga qo‘llanilgan, to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Mazkur gap inkor shaklda bo‘lib, e’tibor berishimiz lozim bo‘lgan jihat shuki, inkor yuklamasi vositali to‘ldiruvchidan oldin keladi. Mazkur gapning tartibi quyidagicha:

Ega +inkor yuklamasi+ko‘makchili vositali to‘ldiruvchi+fe’l ;

2.2. Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi

Predmetga ishora qiluvchi vositasiz to‘ldiruvchi deb nomlanadi, xitoy tilida 直接宾语 deb nomlanadi. Vositasiz to‘ldiruvchi gapda vositali to‘ldiruvchidan keyin keladi , agarda gapda ham vositali ham vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok etganda hollarda, albatta. Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchi harakatni butunlay o‘ziga qabul qilgan predmetni ifodalab keladi.

Ba‘zi fe’llardan so‘ng ikkita to‘ldiruvchi kelishi mumkin, ulardan biri shaxsni , biri esa predmetni ko‘rsatib keladi. Shaxsni ifodalovchi vositali to‘ldiruvchi, predmetga ishora qiluvchi vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi. Vositasiz to‘ldiruvchi vositali to‘ldiruvchidan so‘ng keladi.

Masalan ,

张老师教我们汉语。Zhāng lǎoshī jiào wǒmen Hànyǔ.

Ustoz Zhang bizga xitoy tilini o'qitadilar.

Ushbu gapda 汉语 predmetni ifodalab kelmoqda, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

刚才小李告诉一个好消息, 你想听吗? Gāngcái xiǎo lǐ gàosù yīgè hǎo xiāoxī, nǐ xiǎng tīng ma?

Hozirgina Syao Li menga bir yaxshi habar aytdi, sen eshitishni istaysanmi?

Ushbu gapda 消息 predmetni ifodalab kelmoqda, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

你借我一点钱可以吗? Nǐ jiè wǒ yīdiǎn qián kěyǐ ma?

Menga ozgina qarz berib tura olasanmi?

Ikki tovldiruvchiga ega bo'lib kela oladigan fe'llar ko'p emas, ulardan asosiylari quyidagilar: 给-gěi-bermoq, 送-sòng -sovg'a qilmoq, 租-zū -ijaraga olmoq/bermoq, 借-jiè -qarzga bermoq/olmoq, 卖-mài -sotmoq, 换-huàn -almashtirmoq, 告诉-gàosù -aytmoq, 通知-tōngzhī -xabardor qilmoq, 报告-bàogào -xabar bermoq, 求-qiú -yordam so'ramoq, 教-jiào -o'qitmoq, 问-wèn -sovranoq, 请教-qǐngjiào -savol sovranoq, 赔-péi -qarzini tovlamoq, 称-chēng -atamoq, 叫-jiào -chaqirmoq va boshqalar.¹⁶

告诉-gàosù -aytmoq, 通知-tōngzhī -xabardor qilish, 求-qiú -yordam so'ramoq va boshqa fe'llar gapda kesim bo'lib kelganda, ulardan so'ng vositali to'ldiruvchi kelishi shart, vositasiz to'ldiruvchi tushirib qoldirish ham mumkin yoki gap boshiga qo'yishimiz mumkin. Masalan :

¹⁶实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-465.

1. A : 这件事我可以告诉老王吗？

B : 你告诉他吧。

A: Zhè jiàn shì wǒ kěyǐ gàosù lǎo wáng ma?

B: Nǐ gàosù tā ba.

A : Bu masalani Laowangga aytsam bo 'ladimi?

B : Sen unga aytaqol.

2. 明天早上开会。我通知你了，你可别忘了。

Míngtiān zǎoshang kāihuì. Wǒ tōngzhī nǐle, nǐ kě bié wàngle. – Ertaga ertalab majlis. Men senga aytdim, sen unutmagin .

Birinchi gapda 他, ikkinchi gapda 你 olmosh turkumiga oid soʻzlar vositali toʻldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda. Ular kesimdan soʻng kelib, vositasiz toʻldiruvchi 这件事 gap boshida kelmoqda.

Ushbu feʼllardan soʻng faqatgina vositasiz toʻldiruvchi kela olmaydi. Masalan :

他告诉一个新情况。 ×

U bir yangi habar aytdi.

我求一件事。 ×

Men bitta masala soʻradim.

Bunday ifodalash notoʻgʻri hisoblanadi.

租 -zu-ijaraga olmoq/bermoq, 借 -jie-qarzga bermoq/olmoq feʼllari qatnashgan gaplarda ushbu feʼllardan soʻng vositasiz toʻldiruvchi kelishi shart, vositali toʻldiruvchini tushirib qoldirish mumkin. Masalan :

1. 我想租 (你) 一间屋子。

2. 他已经借了 (我) 那么多钱了, 还不够吗?

Birinchi gapda 一间屋子 va ikkinchi gapda 那么多钱 so‘z birikmalari vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

Yuqoridagi fe’llardan so‘ng faqatgina vositali to‘ldiruvchi kelishi mumkin emas.

这间屋子我想租你。 ×

很多钱他借了我。 ×¹⁷

教 jiao-o‘qitmoq , 问 -wen-so‘ramoq , 请教 -qingjiao- , 赔 -pei-qarzini to‘lash, 给 -gei-bermoq, 还 -huan-qaytarib bermoq fe’llari kelgan gaplarda , ushbu fe’llardan so‘ng faqatgina vositasiz to‘ldiruvchi, hamda faqatgina vositali to‘ldiruvchi kelishi mumkin.

1. 这些钱是他给我的。 *Zhèxiē qián shì tā gěi wǒ de. – Bu pullarni u menga berdi.*

Ushbu gapda 我- vositali to‘ldiruvchi, olmosh bilan ifodalangan.

2. 他给两千块钱。 *Tā gěi liǎng qiān kuài qián. – U ikki ming so‘m berdi.*

两千块钱- vositasiz to‘ldiruvchi, hisob so‘zli birikma bilan ifodalangan.

3. 王 老 师 教 我。 *Wáng lǎoshī jiào wǒ. – Ustoz Van menga dars beradilar .*

Ushbu gapda 我 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib, olmosh so‘z turkumiga oid so‘z, ya’ni kishilik olmoshi bilan ifodalangan. Bir to‘ldiruvchili gap hisoblanadi.

¹⁷实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-465,466.

4. 王老师教数学。 *Wáng lǎoshī jiào shùxué.* – Ustoz Van matematikani o‘rgatadilar.

Ushbu gapda 数学 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

5. 别担心，我赔你。 *Bié dānxīn, wǒ péi nǐ.* – Sen qayg‘urma, men senga to‘layman.

Ushbu gapda 你 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda, to‘ldiruvchi olmosh so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan

6. 我赔一千，你赔一千，可以吗？ *Wǒ péi yīqiān, nǐ péi yīqiān, kěyǐ ma?* – Men bir ming, sen bir ming so‘m to‘laysan, bo‘ladimi?

Mazkur gapda 一千 so‘zlari vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelib, son so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan ifodalangan.

称-cheng- atamoq; nomlamoq, 叫-jiao-chaqirmoq, atamoq fe’llari qatnashgan gaplarda, fe’ldan so‘ng ikkita to‘ldiruvchi kelishi shart bo‘lib, bittasi bo‘lmasa mumkin emas, gap xato hisoblanadi. Masalan :

1. 人们都叫他无事忙。 *Rénmen dōu jiào tā wú shì máng.*

Odamlar uni bekorchi narsalar bilan band bo‘ladigan deb atashadi.

Yuqoridagi gapda fe’ldan so‘ng ikkita to‘ldiruvchi kelmoqda. 他 va 无事忙 so‘zlari, birinchi to‘ldiruvchi olmosh so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan bo‘lib, ikkinchi to‘ldiruvchi esa otlashgan sifat bilan ifodalangan. Ushbu ikki to‘ldiruvchi birgalikda murakkab to‘ldiruvchilardir. Ular haqida keying rejamizda to‘liqroq ma’lumot beramiz. Alohida vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Quyidagi gaplar xato hisoblanadi, chunki fe’ldan so‘ng bitta to‘ldiruvchi kelgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mazkur fe’llar bilan gapda ikkita

to‘ldiruvchi qatnashishi shart, aks holda gap xato hisoblanadi, bunday qo‘llash mumkin emas. Masalan :

*无事忙人们都叫他。 *Wú shì máng rénmen dōu jiào tā.

*他人们都叫无事忙。 *Tā rénmen dōu jiào wú shì máng.

2. **附近的人都称他师傅。** *Fùjìn de rén dōu chēng tā shīfū.* – *Yaqin kishilar uni ustoz deb ataydilar.*

Yuqoridagi gapda fe’ldan so‘ng ikkita to‘ldiruvchi kelmoqda. 他 va 师傅 so‘zlari , birinchi to‘ldiruvchi olmosh so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan bo‘lib, ikkinchi to‘ldiruvchi esa ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Ushbu ikki to‘ldiruvchi birgalikda murakkab to‘ldiruvchilardir. Har biri alohida vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Quyidagi gaplar xato hisoblanadi, chunki 称 fe’li bilan yuqorida aytib o‘tganimizdek ikkita to‘ldiruvchi kelishi shart.

? 他附近的人都称师傅。 Tā fùjìn de rén dōu chēng shīfū.

*师傅附近的人都称他。¹⁸*Shīfū fùjìn de rén dōu chēng tā.

Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchining gapdagi o‘rni:

1) kesimdan so‘ng kelan holatda

我喝咖啡 - *Wǒ hē kāfēi* – *Men qahva ichaman.*

Vositasiz to‘ldiruvchi gapda odatda kesimdan so‘ng keladi. Ushbu gapda 咖啡 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. 喝 gapning kesimi bo‘lib, fe’l-kesim hisoblanadi, vositasiz to‘ldiruvchi kesimdan so‘ng kelgan.

2) egadan oldin kelgan holatda

¹⁸实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-466.

To'ldiruvchi egadan oldin qo'yilsa, gap emosional bo'yoqdorlikka ega bo'ladi, shu o'rinda to'ldiruvchiga alohida urg'u beriladi. Tarjimada ham alohida ajratiladi:

这本书我已经买了! *Zhè běn shū wǒ yǐjīng mǎi le.* – *Bu kitobni men allaqachon sotib oldim.*

Vositasiz to'ldiruvchi gapda egadan oldin kelishi ham kuzatiladi. Ushbu gapda 书 so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan. 买 gapning kesimi bo'lib, fe'l-kesim hisoblanadi, vositasiz to'ldiruvchi egadan oldin kelib, to'ldiruvchiga alohida urg'u bermoqda. Aynan belgilash, kovrsatish, bo'rttirish uchun shunday qo'llanilgan.

3) ega va kesim orasida kelgan holatda

Bunday sharoitda 把 bǎ ko'makchisini qovllash lozim. Masalan :

我把这些汉字写错了! *Wǒ bǎ zhè xiē hànzì xiě cuò le.* – *Men bu iyerogliflarni hato yozdim.*

Bu gapda to'ldiruvchi o'rnida kelgan so'zga urg'u berilayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. 汉字 gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

Bunday gaplarni inkor shaklga aylantirish uchun 没 méi inkor yuklamasi qo'llaniladi.

Masalan :

我没把这些汉字写错了。 *Wǒ méi bǎ zhè xiē hànzì xiě cuò le.* – *Men bu iyerogliflarni hato yozganim yo'q.*

Tasdiq gaplarda 把 bǎ ko'makchisidan oldin inkor modal yuklama 没 méi emas, 不 bù qo'llaniladi.

我不想把这本书还给他。

Wǒ bù xiǎng bǎ zhè běn shū huán gěi tā. – Bu kitobni men unga qaytarib bergim kelmayapti.

Mazkur gap to‘ldiruvchisi 书 so‘zi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, gap inkor shaklda bo‘lib, yuqorida aytib o‘tganimizdek inkor yuklamasi fe‘ldan oldin keladi.

2.3 Xitoy tilida qo‘shma va murakkab to‘ldiruvchi haqida ma’lumot hamda to‘ldiruvchining semantik turlari

Qo‘shma to‘ldiruvchi (ikkilangan to‘ldiruvchi) 双宾语 shuāng bīnyǔ va murakkab to‘ldiruvchi 复合宾语 fùhé bīnyǔ haqida ma’lumot:

Ikkilangan to‘ldiruvchi bu ba’zi fe‘llardan so‘ng keluvchi vositasiz hamda vositali to‘ldiruvchilardir. Vositasiz to‘ldiruvchi harakatni qabul qilgan predmetni ifodalaydi, vositali to‘ldiruvchi esa harakatni bajarayotgan odamga yo‘nalgan bo‘ladi. Masalan ,

我送给她生日礼物。 *Wǒ sòng gěi tā shēngrì lǐwù. – Men unga tug‘ilgan kun sovg‘asini berdim.*

Shu o‘rinda 她 vositali to‘ldiruvchi, ot bilan ifodalangan, 礼物 vositasiz to‘ldiruvchi, ot bilan ifodalangan, ushbu to‘ldiruvchilar qo‘shma (ikkilangan) to‘ldiruvchilar hisoblanadi.

Murakkab to‘ldiruvchi bu to‘ldiruvchiga qo‘shimcha to‘ldiruvchi qo‘shiladi.

我们叫他杰克。 *Wǒmen jiào tā jiékè. – Biz uni Jak deb ataymiz.*

Shu o‘rinda 他 to‘ldiruvchi, 杰克 qo‘shimcha to‘ldiruvchi. Ular birga murakkab to‘ldiruvchi hisoblanadi. Birinchi to‘ldiruvchi olmosh bilan ifodalangan, qo‘shimcha to‘ldiruvchi esa ot so‘z turkumiga mansub. Ushbu to‘ldiruvchilar alohida vositasiz to‘ldiruvchi hisoblanadi.

他们任命他为主席。 *Tāmen rèn mìng tā wéi zhǔxí.* – Ular uni rais etib tayinlashdi.

Bu gapda 他 to‘ldiruvchi, 主席 qo‘shimcha to‘ldiruvchi bo‘lib, to‘ldiruvchi olmosh bilan, qo‘shimcha to‘ldiruvchi esa ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Ular vositasiz to‘ldiruvchiga kiradi. Tuzilish jihatdan murakkab to‘ldiruvchilardir.

Qo‘shma to‘ldiruvchi va murakkab to‘ldiruvchining farqli jihatlari:

Ba'zi o‘timli fe’llardan so‘ng qo‘shma to‘ldiruvchidan yoki murakkab to‘ldiruvchi kelishi mumkin, mazkur to‘ldiruvchilar tuzilish jihatdan o‘xshash bo‘lsada, lekin tuzilish va ma’no jihatdan farq qiladi. Shu o‘rinda ularni qanday qilib farqlash mumkin?

1) fe’l tomonidan farqlar

Ba’zi fe’llardan so‘ng qo‘shma to‘ldiruvchi keladi, masalan: 给-gei-bermoq, 指-zhi-ko‘rsatmoq, 带-dai-olib kelmoq, 读-du-o‘qimoq, 发-fa-yubormoq, 送-song-sovg‘a qilmoq, 借-jie-berib turmoq, 告诉-gaosu-aytmoq, 问-wen-so‘ramoq, 离开-likai-tark etmoq, 教-jiao-o‘qitmoq, 写-xie-yozmoq, 买-mai-sotib olmoq, 唱-chang- kuylamoq va boshqalar.

Masalan,

老师给他们每人一块橡皮。 *Lǎoshī gěi tāmen měi rén yīkuài xiàngpí.*

Ustoz ularning har biriga bitta o‘chirg‘ich berdi.

Ushbu gapda 他们 so‘zi vositali to‘ldiruvchi olmosh bilan ifodalangan, 橡皮 so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan. Ushbu ikki vositali va vositasiz to‘ldiruvchi birgalikda qo‘shma to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Ba’zi fe’llardan so‘ng murakkab to‘ldiruvchi keladi, ushbu fe’llarga quyidagilar misol bo‘ladi: 让-rang-ruxsat bermoq, 看-kan-ko‘rmoq, 听-ting-

eshitmoq, 帮-bang-yordam bermoq , 感-gan-his qilmoq , 保持-baochi-saqlamoq, 叫 -jiao-chaqirmoq, 查找 -chazhao-topmoq , 告诉 -gaosu-aytmoq , 问 -wen-so'ramoq , 想-xiang-o'ylamoq , 想-xiang-xohlamoq va boshqalar.

Masalan ,

我们必须保持教室清洁。 *Wǒmen bìxū bǎochí jiàoshì qīngjié.* – *Biz sinfxonani ozoda saqlashimiz lozim.*

Ushbu gapda 教室 so'zi vositasiz to'ldiruvchi ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan, 清洁 so'zi vositasiz to'ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifodalangan. Ushbu ikki vositasiz to'ldiruvchi birgalikda murakkab to'ldiruvchi hisoblanadi.

(2) Ushbu ikki bo'lakning grammatik xususiyatlariga ko'ra farqlari:

Qo'shma to'ldiruvchida vositasiz yoki vositali to'ldiruvchi odatda ot yoki olmosh so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalanadi. Murakkab to'ldiruvchida esa qo'shimcha to'ldiruvchi bo'lagini ifodalab keluvchi so'z turkumlari ancha ko'proq, masalan:

Ot- 名词 -mingci 、 sifat- 形容词 -xongrongci 、 ravish- 副词 -fuci 、 bog'lovchili so'z birikma-介词短语-jieciduanyu、 fe'ning noaniq shakli (so'z birikma) 动词不定式-dongcibudingshi (短语) va sifatdosh (so'z birikma)- 分词 -fenci (短语) va boshqalar.

Masalan :

她向我们展示 (代词) 一个新的电视机 (名词) 。 (双宾语) *Tā xiàng wǒmen zhǎnshì (dàicí) yīgè xīn de diànshì jī (míngcí).* (Shuāng bīnyǔ).

U bizga (olmosh) yangi televizorini (ot) ko'rsatdi. (qo'shma to'ldiruvchi)

Ushbu gapda 我们 vositali to‘ldiruvchi, 向 ko‘makchisi bilan qo‘llanilib kelgan, 电视机 vositasiz to‘ldiruvchi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, ushbu ikki vositali hamda vositasiz to‘ldiruvchi birgalikda qo‘shma to‘ldiruvchi deb nomlanadi.

我们都叫他老李 (名词) 。 (复合宾语) *Wǒmen dōu jiào tā lǎo lǐ (míngcí). (Fùhé bīnyǔ) – Biz uni Laoli (ot) debataymiz. (murakkab to‘ldiruvchi)*

Mazkur gapda 他 hamda 老李 to‘ldiruvchi vazifasida kelib, birinchi to‘ldiruvchi olmosh bilan, qo‘shimcha to‘ldiruvchi esa ot bilan ifodalangan, ular birgalikda ushbu gapda murakkab to‘ldiruvchi hisoblanadi.

他们必须在背后保持他们的手。 (介词短语) . (复合宾语) *Tāmen bìxū zài bèihòu bǎochí tāmen de shǒu. (Jiècí duǎnyǔ). (Fùhé bīnyǔ)*

Ular qo‘llarini orqada ushlashlari lozim. (bog‘lovchili birikma) (murakkab to‘ldiruvchi)

我不会让你再试试。 (不定式短语) . (复合宾语) *Wǒ bù huì ràng nǐ zài shì shì. (Bùdìng shì duǎnyǔ). (Fùhé bīnyǔ)*

Men senga yana harakat qilib ko‘rishinga yo‘l bermayman. (so‘z birikmasi) (murakkab to‘ldiruvchi)

其他同学在课堂上保持闭上自己的眼睛. (过去分词) (复合宾语) *Qítā tóngxué zài kètáng shàng bǎochí bì shàng zìjǐ de yǎnjīng (guòqù fēncí) (fùhé bīnyǔ)*

Boshqa o‘quvchilar darsda ko‘zlarini yumgan holda o‘tirishadi. (o‘tgan zamon sifat sifatdoshi) (murakkab to‘ldiruvchi)

(3) Vositali va vositasiz to‘ldiruvchi hamda murakkab to‘ldiruvchi va qo‘shimcha to‘ldiruvchilarning tuzilish jihatdan farqlari:

Qo‘shma to‘ldiruvchida ikki to‘ldiruvchi o‘rtasidagi aloqa erkin, ba’zi gaplarda to‘ldiruvchilardan biri tushirib qoldirilsa ham, gap tugallanadi. Qo‘shma

to'ldiruvchi odatda "kim uchun?" yoki "kimga", hamda "o'timli fe'l+ vositali to'ldiruvchi +vositasiz to'ldiruvchi" li birikmani ingliz, o'zbek tillarida "o'timli fe'l+vositasiz to'ldiruvchi+ kim uchun yoki kimga?" birikmaga o'zgartirib yozish mumkin, lekin xitoy tilida ular gapda aniq o'rniga ega .

Masalan ,

请给我看看你的新书。 *Qǐng gěi wǒ kàn kàn nǐ de xīn shū.*

Iltilmos yangi kitobingni menga ko'rsat yoki Iltilmos menga yangi kitobingni ko'rsat.

Ushbu gapda 我 vositali to'ldiruvchi, olmosh bilan ifodalangan, 书 so'zi vositasiz to'ldiruvchi, ot bilan ifodalangan. Birgalikda qo'shma to'ldiruvchi hisoblanadi. Quyidagi gap ham misol bo'la oladi. Masalan :

她给我买了一些西红柿。 *Tā gěi wǒ mǎile yīxiē xīhóngshì.*

U menga pomidor sotib oldi yoki U pomidorni menga sotib oldi.

To'ldiruvchi va qo'shimcha to'ldiruvchi o'rtasidagi munosabat ancha yaqin, ulardan birini tushirib qoldirsak, gap ma'nosi tugallanmay qoladi. Bundan tashqari ot, sifat, ravish turkumiga kiruvchi so'zlar va bog'lovchili birikma qo'shimcha bog'lovchi bo'lib kelganida to'ldiruvchi bilan uzviy aloqa da bo'ladi; agarda so'z birikmasi yoki sifatdoshli birikma qo'shimcha to'ldiruvchi bo'lib kelsa to'ldiruvchi bilan ega –kesim aloqasida keladi.

Masalan ,

我们会使我们的祖国更美丽。 (我们的国家会更漂亮。) *Wǒmenhuì shǐ wǒmendezǔguó gèngměilì. (Wǒmen de guójiā huì gèng piàoliang.)*

Bizlar Vatanimizni yanada go'zallashtiramiz. (Mamlakatimiz yanada go'zallashadi.)

Yuqoridagi gapda 祖国 va 美丽 so'zlari murakkab to'ldiruvchi hisoblanadi, to'ldiruvchi ot bilan, qo'shimcha to'ldiruvchi otlashgan sifat bilan ifodalangan.

我发现他在 201 房间。(他曾在 201 房间) *Wǒ fāxiàn tā zài 201 fángjiān.* (*Tā céng zài 201 fángjiān*)

Men uni 201 xonadan topdim. (U 201 xonada.)

Mazkur gapda 他 va201 房间 soʻzlari murakkab toʻldiruvchi boʻlib, toʻldiruvchi olmosh bilan, qoʻshimcha toʻldiruvchi esa son bilan ifodalangan.

他让我们每天工作 10 小时。(我们每天工作 10 小时。) *Tā rang wǒmen měitiān gōngzuò 10 xiǎoshí.* (*Wǒmen měitiān gōngzuò 10 xiǎoshí.*)

U bizni har kuni 10 soat ishlatadi. (Biz har kuni 10 soat ishlaymiz)

在房间里我们听到她的歌声。(她唱歌在房间里。)

Zài fángjiān lǐ wǒmen tīng dào tā de gēshēng. (*Tā chànggē zài fángjiān lǐ.*)

U qoʻshiq kuylayotganligini xonada eshitib qoldik. (U xonada qoʻshiq kuylaydi)

Murakkab toʻldiruvchi haqida tushuncha:

Xitoy tilida baʼzi feʼllar bitta toʻldiruvchi qabul qilgandan soʻng gapning mazmuni toʻliq boʻlmaydi, shuning uchun toʻldiruvchidan soʻng yana bir soʻz yoki soʻz birikma qoʻshib uning oʻrni, oʻziga xos xususiyati, holati yoki bajarayotgan harakatiga tushintirish berib toʻldirib keladi. Ushbu turdagi “toʻldiruvchi 宾语+宾 qoʻshimcha toʻldiruvchi 语补足语”shaklli tuzilma murakkab toʻldiruvchi deb nomlanadi.

Masalan :我们叫他杰克。 *Wǒmen jiào tā jiékè. – Biz uni Jak deb ataymiz.*

Ushbu gapda 他 toʻldiruvchi, 杰克 qoʻshimcha toʻldiruvchi, ular birgalikda murakkab toʻldiruvchi hisoblanadi. Birinchi toʻldiruvchi olmosh soʻz turkumiga oid soʻz bilan ifodalangan boʻlsa, ikkinchi qoʻshimcha toʻldiruvchi ot soʻz turkumiga oid soʻz bilan ifodalangan.

他们任命他为主席。 *Tāmen rènming tā wéi zhǔxí.* – *Ular uni rais etib tayinlashdi.*

Ushbu gapda 他 to‘ldiruvchi, 主席 esa qo‘shimcha to‘ldiruvchi, ular murakkab to‘ldiruvchi hisoblanadi. Birinchi to‘ldiruvchi kishilik olmoshi bilan ifodalangan, ikkinchi qo‘shimcha to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

To‘ldiruvchining semantik turlari:

Xitoy tilida to‘ldiruvchining kesim yoki ega bilan munosabati juda turli-tuman. Quyida biz ularning bir necha turlari haqida so‘z yuritimiz. Ushbu to‘ldiruvchining semantik turlari to‘ldiruvchi va fe‘l o‘rtasidagi munosabat ma’nolariga ko‘ra bir necha turlarga ajratilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. 对象宾语- Duìxiàng bīnyǔ-- ob’yekt to‘ldiruvchi.¹⁹

Ob’yekt to‘ldiruvchi bu harakat holatining ob’yekti. Masalan ,

他在看电视。 – *Tā zài kàn diànshì.* – *U televizor ko‘rmoqda.*

Ushbu gapda 电视 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, harakatning ob’yektini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi ob’yekt to‘ldiruvchi deb ataladi.

妈妈杀了一只鸡。 *Māmā shāle yī zhī jī.* – *Onam bitta tovuqni so‘ydi.* Ushbu gapda 一只鸡 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot hisob so‘zli birikma bilan ifodalangan, harakatning ob’yektini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi ob’yekt to‘ldiruvchi deb ataladi.

我自己洗衣服。 – *Wǒ zìjǐ xǐ yīfú.* – *Men o‘zim kir yuvaman.*

¹⁹现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京:北京大学出版社, 2009.1.-页.39.

Ushbu gapda 衣服 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan, harakatning ob‘yektini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi ob‘yekt to‘ldiruvchi deb ataladi.

2. 结果宾语-Jiéguǒ bīnyǔ- natija to‘ldiruvchi

Natija to‘ldiruvchi bu harakat paydo qilgan natijadir. Masalan ,

我们每两周写一篇作文。 -*Wǒmen měi liǎng zhōu xiě yī piān zuòwén.*

--*Biz har ikki haftada bitta insho yozamiz.*

Ushbu gapda 一篇作文 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot hisob so‘zli birikma bilan ifodalangan, harakatning natijasini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi natija to‘ldiruvchi deb ataladi.

学校要在这里建一个体育馆。 *Xuéxiào yào zài zhèlǐ jiàn yīgè tǐyùguǎn.*

Maktab bu yerga sport maydonchasi qurishi kerak.

Ushbu gapda 一个体育馆 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot hisob so‘zli birikma bilan ifodalangan, harakatning natijasini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi natija to‘ldiruvchi deb ataladi.

他自己煮饭。 *Tā zìjǐ zhǔ fàn.*– *U o‘zi ovqat pishiradi.*

Ushbu gapda 饭 so‘zi to‘ldiruvchi bo‘lib, ot bilan ifodalangan, harakatning natijasini bildirib kelmoqda, shuning uchun ham bunday to‘ldiruvchi natija to‘ldiruvchi deb ataladi.

3. 处所宾语-- Chùsuǒ bīnyǔ --O‘rin-joy to‘ldiruvchi

O‘rin-joy to‘ldiruvchi deb to‘ldiruvchi o‘rin yoki joyni ifodalasa aytiladi. Masalan :

他们假期去云南丽江。 *Tāmen jiàqī qù yúnnán lìjiāng.*

Ular dam olish paytida Yunnanning Lizyang shahriga borishdi.

Ushbu gapda 云南丽江 so‘zi, to‘ldiruvchi vazifasida kelib, o‘rin-joy to‘ldiruvchisi hisoblanadi, chunki to‘ldiruvchini ifodalayotgan so‘z ot so‘z turkumiga tegishli so‘z bo‘lib, o‘rin-joyni ifodalab kelmoqda.

我每个星期要进城。 *Wǒ měigè xīngqī yào jìnchéng.* – Men har hafta shaxarga borishim kerak.

Ushbu gapda 城 to‘ldiruvchi vazifasida kelib, semantic jihatdan o‘rin-joy to‘ldiruvchi hisoblanadi, vositali to‘ldiruvchi bo‘lib, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

他们坐飞机，我们坐火车。 *Tāmen zuò fēijī, wǒmen zuò huǒchē.* – Ular samalyotda ketishadi, bizlar poyezdda ketamiz.

Ushbu gapda 飞机 va 火车 to‘ldiruvchi vazifasida kelib, sematik jihatdan o‘rin-joy to‘ldiruvchisi hisobalanadi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

4. 时间宾语—Shíjiān bīnyǔ —Payt to‘ldiruvchi

Payt to‘ldiruvchi deb to‘ldiruvchi ma‘lum bir vaqtni ifodalagan to‘ldiruvchiga aytiladi.

我第一次在北京过春节。 *Wǒ dì yī cì zài běijīngguò chūnjié.* – Men birinchi marta Pekinda Chunjieni nishonlamoqdaman.

Ushbu gapda 春节 to‘ldiruvchi vazifasida kelib, payt to‘ldiruvchisi hisoblanadi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

我们为她过生日。 *Wǒmen wèi tāguò shēngrì.* – Biz uni tug‘ilgan kunini nishonlamoqdamiz.

Ushbu gapda 生日 to‘ldiruvchi vazifasida kelib, payt to‘ldiruvchisi hisoblanadi, ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

5. 工具宾语-Gōngjù bīnyǔ - Vosita to‘ldiruvchi²⁰

Vosita to‘ldiruvchi deb to‘ldiruvchi harakat holatiga tayangan vositaga aytiladi.

我吃小碗，你吃大碗。 *Wǒ chī xiǎowǎn, nǐ chī dàwǎn.*

Men kichkina kosada ovqatlanyapman, sen katta kosada.

Ushbu gapda 小碗 va 大碗 so‘zlari to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat bajarilayotgan, tayangan vositani ifodalab kelmoqda. Vosita to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

她脸上擦了粉。 *Tā liǎnshàngcālefěn.* – *U yuzidan kukunni artdi.*

Ushbu gapda 粉 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat bajarilayotgan, tayangan vositani ifodalab kelmoqda. Vosita to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

6. 措施宾语-Cuòshī bīnyǔ - Chora-tadbir to‘ldiruvchi

Chora-tadbir to‘ldiruvchi deb, harakat holat yo‘nalayotgan kishi yoki narsaga aytiladi.

我们家来客人了。 *Wǒmen jiā lái kèrén le.* – *Uyimizga mehmon keldi.*

Ushbu gapda 客人 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat yo‘nalgan kishini ifodalab kelmoqda. Chora –tadbir to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

小孩儿要经常晒太阳。 *Xiǎo hái'ér yào jīngcháng shài tàiyáng.* – *Bolani tez-tez quyoshda toblash kerak.*

²⁰现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京:北京大学出版社, 2009.1.-页.40.

Ushbu gapda 太阳 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat yo‘nalgan kishini ifodalab kelmoqda. Chora –tadbir to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

这间屋住两个学生。 *Zhè jiān wū zhù liǎng gè xuéshēng.* – *Bu kvartirada ikkita o‘quvchi yashaydi.*

Ushbu gapda 两个学生 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat yo‘nalgan kishini ifodalab kelmoqda. Chora-tadbir to‘ldiruvchi sonli so‘z birikma bilan ifodalangan.

出太阳了。 -*Chū tàiyáng le.* – *Quyosh chiqdi.* Ushbu gapda 太阳 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, harakat yo‘nalgan kishini ifodalab kelmoqda. Chora –tadbir to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

7. 类别宾语—Lèibí bīnyǔ -Kategoriya to‘ldiruvchi

Kategoriya to‘ldiruvchi deb to‘ldiruvchi eganing kategoriyasini ifodalab kelishiga aytiladi.

他是英国人。 ---*Tā shì yīngguó rén.* – *U Britaniyalik.*

Ushbu gapda 英国人 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, eganing qaysi guruhga tegishliligini ifodalab kelmoqda. Kategoriya to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

这是金属的。 ---*Zhè shì jīnshǔ de.* – *Bu oltindan.*

Ushbu gapda 金属 so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelib, eganing qaysi guruhga tegishliligini ifodalab kelmoqda. Kategoriya to‘ldiruvchi ot so‘z turkumiga oid so‘z bilan ifodalangan.

他当班长。 ---*Tā dāngbānzhǎng.* – *U si nf boshi bo‘ldi.*

Ushbu gapda 班长 soʻzi toʻldiruvchi vazifasida kelib, eganing qaysi guruhga tegishlilikini ifodalab kelmoqda. Kategoriya toʻldiruvchi ot soʻz turkumiga oid soʻz bilan ifodalangan.

Ikkinchi bob boʻyicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xitoy tilida toʻldiruvchi harakatni butunlay qabul qilgan predmetni ifodalab kelishiga koʻra ikki turga boʻlinadi. Ular vositali hamda vositasiz toʻldiruvchilardir.

2. Vositali toʻldiruvchi koʻmakchilar birga, shuningdek koʻmakchilarsiz ham qoʻllaniladi. Ushbu koʻmakchilarga 对, 给, 替, 和, 跟, 同, 用 va boshqa shu kabi koʻmakchilar misol boʻla oladi.

3. Vositali toʻldiruvchi odatda ot va olmosh soʻz tukumiga oid soʻz hamda otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi.

4. Vositasiz toʻldiruvchi kesimdan soʻng, egadan oldin hamda ega va kesim orasida kelishi mumkin, odatda ot, son, olmosh, otlashgan sifat, sifatdosh bilan ifodalanadi.

5. Xitoy tilida toʻldiruvchi tuzilish jihatdan ham ikki xil boʻlib, biri qoʻshma toʻldiruvchi, ikkinchisi murakkab toʻldiruvchi hisoblanadi.

6. Toʻldiruvchi semantik maʼno ajratishi jihatidan bir necha turlarga boʻlinadi. Unda toʻldiruvchi anglatib kelayotgan maʼnoga alohida eʼtibor beriladi. Toʻldiruvchining feʼl bilan oʻzaro aloqasi yuzasidan toʻldiruvchi bir nechta semantik turlarga boʻlinadi.

XULOSA

- ✓ Xitoy tilida gap dastlab ikki katta bo‘laklarga bo‘linadi. Birinchisi ega qism bo‘lagi. Ikkinchisi kesim qism bo‘lagi hisobalanadi. Xitoy tilida 主语部分 , 谓语部分 deb nomlanadi. Ega qism bo‘lagiga ega va aniqlovchi gap bo‘lagi kiradi. Kesim qism bo‘lagiga kesim, to‘ldiruvchi, to‘liqllovchi va hol gap bo‘laklari kiradi.
- ✓ To‘ldiruvchi xitoy tilida 宾语 bīn yǔ hamda 受词 shouci deb ham nomlanadi. Xitoy tilida vositasiz to‘ldiruvchi harakatni butunlay o‘ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi, vositali to‘ldiruvchi harakatni butunlay o‘ziga qabul qilmaydi, lekin harakat ta’sir etgan ob’yektni qabul qiladi. Xitoy tilida to‘ldiruvchi ot, olmosh, otlashgan sifat, predikat hamda gap bilan ifodalanilishi mumkin.
- ✓ Xitoy tilida to‘ldiruvchi harakatni butunlay qabul qilgan predmetni ifodalab kelishiga kora ikki turga bo‘linadi. Ular vositali hamda vositasiz to‘ldiruvchilardir. 直接宾语 zhijie binyu – vositasiz to‘ldiruvchi; 间接宾语 jianjie binyu – vositali to‘ldiruvchi;
- ✓ Vositali to‘ldiruvchi ko‘makchilarsiz 给 gěi (bermoq), 问 wèn (so‘ramoq), 送 sòng (sovg‘a qilmoq) va boshqa fe’llar bilan birga qo‘llaniladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan fe’l 给 gěi hisoblanadi.
- ✓ Xitoytilidato‘ldiruvchisubyecktto‘ldiruvchivaobyektto‘ldiruvchilargahambo‘l inadi, subyecktto‘ldiruvchiharakatqabulqiluvchisubyecktgaishoraqilib, xitoytilida 施事宾语 sh ī shìb ī ny ŭ debnomlanadi,

obyekt to'ldiruvchi harakat qabul qilgan obyektga ishora qiladi, xitoy tilida 受事
宾语 shòushìbīnyǔ deb ataladi;

- ✓ Xitoy tilida shuning bilan na subyekt to'ldiruvchi va na obyekt to'ldiruvchi hisoblanmaydigan to'ldiruvchilar ham mavjud;
- ✓ Xitoy tilida old qismda keluvchi to'ldiruvchilar bo'lib, bunday to'ldiruvchilar kesimdan oldin keladi. Lekin barcha kesimdan oldin kelgan to'ldiruvchini old qismda keluvchi to'ldiruvchi deb atay olmaymiz. Gapda harakatni qabul qiluvchi subyekt kelib, bundan tashqari gapdagi harakatni qabul qiluvchi obyekt harakatni qabul qiluvchi subyektdan so'ng kelganidagina, bunday obyekt qabul qiluvchi old qismda keluvchi to'ldiruvchi bo'la oladi.
- ✓ Ikki to'ldiruvchiga ega bo'lib kela oladigan fe'llar ko'p emas, ulardan asosiylari quyidagilar: 给- gěi -bermoq , 送-sòng -sovg'a qilmoq , 租- zū -ijaraga olmoq/bermoq , 借- jiè -qarzga bermoq/olmoq , 卖- mài -sotmoq , 换- huàn -almashtirmoq , 告诉- gàosù -aytmoq , 通知- tōngzhī -xabardor qilmoq , 报告- bàogào -xabar bermoq , 求- qiú -yordam so'ramoq , 教- jiào -o'qitmoq , 问- wèn -so'ramoq , 请教- qǐngjiào -savol so'ramoq , 赔- péi -qarzini to'lamoq , 称- chēng -atamoq , 叫- jiào - chaqirmoq va boshqalar .
- ✓ Xitoy tilida to'ldiruvchi tuzilish jihatdan ham ikki xil bo'lib, biri qo'shma to'ldiruvchi, ikkinchisi murakkab to'ldiruvchi hisoblandi. Qo'shma to'ldiruvchi (ikkilangan to'ldiruvchi) 双宾语 va murakkab to'ldiruvchi 复合宾语 deb nomlanadi.

- ✓ Qo'shma to'ldiruvchi (ikkilangan to'ldiruvchi) 双宾语 - bu ba'zi fe'llardan so'ng keluvchi vositasiz hamda vositali to'ldiruvchilar bo'lib, ba'zi fe'llar borki, ulardan so'ng ikkita to'ldiruvchi keladi, bu to'ldiruvchilar qo'shma yoki ikkilangan to'ldiruvchi deb ataladi.
- ✓ Murakkab to'ldiruvchi 复合宾语- bu birinchi kelgan to'ldiruvchini yanada to'liqlab, qo'shimcha ma'no berishda hizmat qiluvchi qism borki, bu to'ldiruvchi qo'shimcha to'ldiruvchi deb nomlanadi, birinchi kelgan to'ldiruvchi qo'shimcha to'ldiruvchi bilan birga murakkab to'ldiruvchi deb nomlanadi.
- ✓ Qo'shma to'ldiruvchida vositasiz yoki vositali to'ldiruvchi odatda ot yoki olmosh so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalanadi. Murakkab to'ldiruvchida esa qo'shimcha to'ldiruvchi bo'lagini ifodalab keluvchi so'z turkumlari ancha ko'proq.
- ✓ To'ldiruvchi semantik ma'no ajaratishi jihatidan bir necha turlarga bo'linadi. Unda to'ldiruvchi anglatib kelayotgan ma'noga hamda to'ldiruvchi va fe'l o'rtasidagi aloqqa alohida e'tibor beriladi. Ular yettiga bo'linadi: 对象宾语- duixiang binyu- ob'yekt to'ldiruvchi, 结果宾语 -jieguo binyu- natija to'ldiruvchi, 处所宾语-- chusuo binyu --O'rin-joy to'ldiruvchi, 时间宾语— shijian binyu—Payt to'ldiruvchi, 工具宾语 -gongju binyu- Vosita to'ldiruvchi, 措施宾语-cuoshi binyu- Chora-tadbir to'ldiruvchi, 类别宾语—leibie binyu-Kategoriya to'ldiruvchi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Prezident asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.- T., 2010.

Asosiy adabiyotlar:

2. ”Xitoyshunosilikning dolzarb muammolari: filologiya, siyosat, iqtisodiyot va falsafa ” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T., 2004-2012.

3. 实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-1005 页.

Liu Yue-hua. “Hozirgi xitoy tili amaliy grammatikasi”. Pekin, 1986. 340 b.

4. 现代汉语语法教程/丁崇明著.-北京:北京大学出版社 , 2009.

Dīng Chóng- míng.-Zamonaviy xitoy tili grammatikasi darsligi.-Pekin,2009 .- 450b.

Xitoy tilidagi adabiyotlar:

5. 吕叔湘《现代汉语八百词》 , 商务印书馆。689 页

Lǚ Shu-xiang. “Hozirgi zamon xitoy tilida 800 so‘z”. “Shangwu shuguan” nashriyoti, 1981. 689 b.

6.王波“王力文集”，第三卷，山东教育出版社出版，1995，678页

Wang Bo. Wangli to‘plami. 3-jild. – Shandong Ta’lim nashriyoti, 1995. 678b.

7.孙常叙“汉语词汇”，吉林人民出版社，1996年，288页

Sun Chang-xu. Xitoy tili leksikasi. – Jilin Xalq nashriyoti, 1996. 288 b.

Lug‘atlar:

8. Словарь иностранных слов. - Москва: Русский язык, 1980.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: “Рус тили” нашриёти, 1981.

10. Русча – ўзбекча луғат. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси. – Т.: 1983.

11. «现代汉语词典», 上海: 汉语大词典出版社 1997 年.

12. 夏征农 «辞海» (中), 上海: 上海辞书出版社, 1999 年.

13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Т.: “Ўзбекистон”, 2002.

14. «俄汉大词典» - 莫斯科. 2006 年.

Ingliz, rus va o‘zbek tilidagi adabiyotlar:

15. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. - М.: Просвещение, 1984. 216 стр.

16. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. Москва, Просвещение, 1974г.

17. Дай Сюэмэй, Чжан Жоин Разговорный китайский: 300 грамматических правил.- М //Издательство. Восток – Запад//,2008. 288 стр.

18. Задоев Т.П, Хуан Шуин. Основы китайского языка. Вводный курс. Москва, Наука. 1983 г.

19. Задоев Т.П, Хуан Шуин. Основы китайского языка. Основной курс. Москва, Наука. 1983 г.

20. Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. - М.//Цитатель- Трейд//, 2006. 576 стр.
21. Люй Шу-сян. Очерк грамматики китайского языка. Часть первая. Категории. «Наука» - М.: 1965 – 275 с.
22. Маслов Ю.С. Введение в языкознание.- М.//Высшая школа// 1998. 272 стр.
23. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1996. 275 стр.
24. Сирко Е.В., Королёва С.Л. Новый практический курс китайского языка. Для начинающих. (учебник). 北京语言大学出版社. 2006 年。
25. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – М., Издательский центр Академия, 2004. – 335 с.
26. Чесноков П.В. Грамматика русского языка в свете теории семантических форм мышления. – Таганрог, Таганрог, 1992. – 22с.
27. Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili. 10-11 sinflar uchun darslik. – T., O'qituvchi, 1997. 156 bet
28. Ona tili. 10-11-sinf. Darslik. – T., O'qituvchi, 1997. 189 bet
29. Xitoy tili. (hammualliflikda L.A.Sultanova, J.T.Ziyamuhamedov, M.A.Turatova) Toshkent, 2010 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

30. 李临定.-动词的宾语和结构的宾语, 语言教学与研究,1984 年第 3 期。
31. 马庆株.-名词性宾语的类别,汉语学习,1987 年第 2 期。
32. 场成凯.-广义谓词性宾语的类型研究,中国语文,1992 年第 1 期。
33. 李培远任远基础汉语课本第一册. 北京: 华语教学出版社, 1991 — 24; 279 页
- 34.周晓更汉语语法新通路.- 北京: 华语教学出版社, 2010 — 176 页。

35. Горелов В.И. Практическая грамматика китайского языка.- М.: Внешторгиздат, 1957. — 192 с.
36. Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. - Просвещение.-1989.
37. Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке.- Издательство Ленинградского университета, 1957, 182 с.
38. Чжао Юньпин. Сопоставительная грамматика русского и китайского языков.-М.: Издательская группа "Прогресс", -2003.,-460 с.

Internet saytlari:

www.filology.ru

www.baidu.com

<http://cheloveknauka.com/chleny-predlozheniya-v-kitayskom-yazyke-v-sravnanii-s-mongolskim-yazykom>

<http://www.dslib.net/jazyki-mira/chleny-predlozhenija-v-kitajskom-jazyke-v-sravnanii-s-mongolskim-jazykom.html>

<http://www.bkrs.info>

<http://www.zdic.net>

<http://www.chinaembassy.uz>